

## LOVE TOPIC IN UTKIR HASHIMOV'S STORIES

**Mukhtorova Maftuna Erkin qizi**

Tashkent State University named after Alisher Navoi  
3rd year student of the University of Uzbek Language and Literature  
muxtorovamaftuna110@gmail.com.

**Annotation:** Demanding writer Utkir Hoshimov's bees cover not only acute socio-political issues and national-spiritual views, but also topics about love. Through his many stories about love, such as "Long Nights", "Captive in Dreams", "Happiness", "Love", "Sale of Life", the artist will tell his book lovers about the magic of love, suffering, bitter past and unforgettable memories. 'has been a mystery. In this article, we summarize the pure love of the author's stories, which is full of emotions.

**Keywords:** Utkir Hoshimov, novell, love magic, separation, happiness

## O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDA MUHABBAT MAVZUSINING YORITILISHI

**Muxtorova Maftuna Erkin qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi  
muxtorovamaftuna110@gmail.com.

**Annotatsiya:** Talabchan adib O‘tkir Hoshimov asarlari o‘tkir ijtimoiy- siyosiy muammolar va milliy - ma‘naviy qarashlardan tashqari muhabbat haqidagi mavzularni ham qamrab olgan. Ijodkor muhabbat tog‘risida "Uzun kechalar", "Xayollarga bo‘laman tutqun", "Baxt", "Muhabbat", "Umr savdosi" kabi talaygina hikoyalari orqali o‘z kitobsevarlarini sevgi sehri, iztiroblari, achchiq kechmishi va unitilmas xotiralari bilan ta‘sirga solib kelmoqda. Berilgan maqolada esa muallif hikoyalaridagi hayajonga to‘la tuyg‘ular aks etgan pok muhabbatni jamlaymiz.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek adabiyoti, O‘tkir Hoshimov, sevgi-muhabbat mavzusi, badiiy tahlil.

Muhabbat qanday ko‘rinishda bo‘ladi deb ichki savol berilsa, shunday ifodalagan bo‘lar edim. Muhabbat - ovqat yedingizmi deb berilgan savol. Muhabbat - issiqroq kiyin, havo sovuq, deb aytilgan buyruq. Muhabbat - o'zingizni ehtiyot qiling deb uyalibgina sekin aytilgan so'z. Muhabbat - yetib borib qo'ng'iroq qilib qo'y deb aytilgan mehr. Muhabbat - xayolida emas hayotida yashash. Muhabbat - ming marta urishsa ham, bir ming birinchi marta yarashish, bir marta urushib ayrilib ketish emas. Muhabbat - o'zaro hurmat. Muhabbat - duolarida eslash. Muhabbat - har qanday kunida yonida bo'lish va men har doim siz bilanman, deb aytilgan dalda... O‘tkir Hoshimov hikoyalaridagi muhabbat gohida kibrli, gohida mag‘rur, gohi osmon, gohi baland, gohi mehr, gohi qahr, ba‘zan sog‘inch, ba‘zan sukut, ba‘zan g‘olib, ba‘zan mag‘lub tarzda ko‘rsatiladi. Uning "Sevgi qissalari" nomli hikoya va qissalar to‘plami diqqatni jamlashni sarlavhadan boshlaydi. Qisqa sujetlarga ega hikoyalar muhabbatni keng ma‘noda anglashga undaydi. [1. O‘tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. T, 2013]. “Muhabbat xayolning aql ustidan g‘alabasidir”. [2. X. Menken, kh-davron kutubxona]. Shu jumladan, "Uzun kechalar" hikoyasidagi aql va sevgi kurashi ovozsiz yig‘iga taslim bo‘ldi.(1, 58-84-betlar). Havasmand ijodkor yigit Marat va qabulxona kotibasi Hilola o‘rtasidagi munosabatlar ming bitta sabab tufayli yigit istab kelolmaydigan, qiz boraman desa yo‘li unmaydigan ishqa aylandi. Hikoya yakunida oshiqqa aylangan Marat haftalar davomida ijodga shong‘ib Hilola borligini unutdi, so‘nggi uchrashuvda Hilola o‘ziga ko‘proq kerakligini, uni

sevib qolganini tushundi, biroq ular barcha sevishgan ma'shuq va ma'shuqalar singari bitta yo'lda keta olmadilar.

Balki haq dunyoda tanib olishchun,

Birrovga sevishib oldik ikkimiz! Ular qismati xuddi shu misradagi kabi nihoyalandi. Ko'pincha O'tkir Hoshimov hikoyalarida yigit va qiz qahramonlar taqdirini sevgi bobida bir- biriga o'xshash, sevgini esa alamli va armonli qilib yaratadi. Zero, "haqiqiy muhabbat amalda zohir bo'ladi, amalda sinaladi, amal bilan kuchayadi. Muhabbat qalb siridir. Bu sir qancha ichkarida bo'lsa, muhabbat shuncha kuchli bo'ladi. Amallar bu sirni yashiradi. So'zlar oshkor qiladi". [ 3. islom. ziyouz.]. Adib "Xayollarga bo'laman tutqun" hikoyasida Xolida va Erkin singari sevgan va endigina sevishga ulguragan obrazlarni jonlantirdi. (1. 43-58-betlar)

Jamiyat a'zolari qaysi mavzu haqida ko'p gaplashishsa, o'sha mavzu ular ustidan hukmini o'rnatadi. Ilm haqida ko'p suhbatlashiladigan jamiyatda ilm, "ishq-muhabbat" haqida ko'p suhbatlashiladigan jamiyatda esa "sevgi" odamlarni boshqaradi. "Sevgi" haqida ko'p gapirish erkaklardan taqvoning, ayol-qizlardan esa iboning yo'qolishiga olib keladi. [4.m.aniq.uz ]. Xolidadek mard qiz ham tuyg'ularini ochiq - oshkora zabonidan aytdi, ammo u husnidek go'zal hayosini yo'qotmadi, bir umr Xudodan shu ishqni so'radi-yu, bir umr shu ishqdan ketolmadi. Bir tomonlama sevgi doim mag'lubiyatga uchraydi, chunki muhabbat bir lahzada qalbni egallaganidek, visol bir umrlik bo'lishi amri maholdir. Ulug'larning aytishlaricha, muhabbatning yetti yuz ming darajasi bor. Muhabbatning eng kichkina darajasi muvofiqatdir. [5. saviya.uz.ijod]. Xuddi shunday O'tkir Hoshimov hikoyalaridagi Erkin yoki Maratlar sevmuq uchun qiz tanlashda adashmadilar, ular bir - birlarini o'zaro tushunolmasdan o'zlarini bu muhabbatga nomunosib deb bildilar. Yoinki "Baxt" hikoyasida Munira Zokirjonday yigitga munosib bo'lishi mumkin edi. Ammo sevgining asl holi - ayriliq bo'ldi. Ya'ni Munira uni yonida bo'lishni istadi, qo'ldan tutishni istadi, ko'zlariga boqishni istadi, lekin ayriliq masalasi azob, sog'inch, dard, hijronga yetakladi. Sevgi emas, ayriliq odamga turli yo'llar bilan ichidagi dardni to'ktiradi. Muniraning har "Yangi yil kechasi"da niyat bilan baxt kelishini kutishi, Nilufarning jajji mehri bilan qilingan duolari muhabbatni ruh bilan bog'ladi. Yuqorida nomlari sanalgan hikoyalar qisman yozuvchi hayotidan olingandek tuyiladi, sababi ba'zi parchalardagi jumlar ikkilantirib shu qarorga kelishimizga olib keladi. Fikrimiz yakunida aytamizki, yozuvchi sevgi mavzusida takrorsiz epizodlar bilan kitobxonlarni tanishtirdi. Ayrim hikoyalarda va'da bir pulga aylandi, vijdon butkul yo'qoldi, muhabbat qarq'aldi, ko'ngil o'rtandi, sevgi oqibat zulmatga ko'mildi, vaqtincha odamlar vaqti kelganida begona ham bo'ldi. Hilola, Xolida singari qizlarni sevgi yig'latdi, sadoqat ahdini buzdi va bir kuni barcha tuyg'ularni xazonlar ortiga berkitdi. Taqdirlar so'nggida ko'zlar diydorga to'ymay, ko'rishmasdan xayrlashdilar, tuyg'ular o'z qadrin bilmay zavolga yuz tutdilar.

"Ishqdan natija kutish ta'maga o'xshab qoladi va shoir shog'doshimizning qutilish ham, voz kechib ketish ham mumkin bo'lmagan sevgi domidagi nozik tuyg'ulari ingichka sezimlarini ta'sirli ifoda etadi" -deb aytdi shoir Faxriyor. Shoir kuchli ruhiy zarbani she'rning so'nggida beradi: "Yaralmay qolgani birgina visol ", - deydi go'yo bamaylixotir, jo'ngina. Demak oshiq chin visol qiyomatda ekaniga ko'nikmog'i lozim bo'ladi. Ammo bu holat uning sevgisi darajasini bir misqolga bo'lsin pasaytirmaydi. [6. Badiiy tahlil asoslari. 263-bet.].

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хошимов Ў. Севги қиссалари. Ҳикоя ва қиссалар. Т.: "Ўзбекистон", 2013. – 480 б.
2. [www.kh.davron.uz](http://www.kh.davron.uz) kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/muhabbat-haqidagi-eng-gozal-fikrlar
3. [www.islom.ziyo.uz](http://www.islom.ziyo.uz) com/maqola/muhabbatning-haqiqiy-ta-rifi
4. [www.aniq.uz](http://www.aniq.uz) ijtimoiy-tarmoqlardagi-islomiy-sevgi
5. [www.saviya.uz.ijod](http://www.saviya.uz.ijod) adabiyotshunoslik/ishq-va-muhabbat-tarifi
6. Q.Yo'ldosh, M.Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent 2016. – 464 b.